

IMOM SHOTIBIY “HIRZUL AMONIY VA VAJHUT TAHHONIY” ASARINING QIROAT ILMIDA TUTGAN O’RNI

*Umarova Nilufar Ulug’bek qizi,
 O’zbekiston xalqaro islam akademiyasi
 24.00.02. Qur’onshunoslik. Hadisshunoslik
 mutaxassisligi stajyor-tadqiqotchisi
 tel: 88 008 85 68
 e-mail: umarov.s.f@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqola hijriy VI asrda Andalusianing Shotiba shahrida tug’ilgan buyuk qiroat imomi – Qosim bin Firruh bin Xalaf bin Ahmad Abul Qosim abu Muhammad ash-Shatibiyning hayoti va ilmiy faoliyati hamda uning eng mashhur asari bo’lmish “Hirzul amoniy va vajhut tahoniy” manzumasi haqida yozilgan. Olimning hayot va ijod yo’li haqida, asosan, arab va turk tillarida yetarlicha ma’lumotlar uchraydi, ammo ularning aksariyati bir-birini takrorlaydi. Shotibiy qiroat olimi sifatida tanilgan bo’lsada, u shuningdek, muhaddis, nahvshunos, ko’plab karomatlar sohibi bo’lgan valiy zot edi.

Ko’zlari ko’r holatda tug’ilgan buyuk Imom ilm talabida Valensiyaga safar qiladi. Safari davomida ko’plab olimlardan ilm o’rganadi, hadislari rivoyat qiladi. Keyinchalik Haj safariga otlanadi. U yerdan qaytib, Qohirada qo’nim topadi. U yerda ko’plab shogirdlar yetishtiradi, Qozi Fozil huzurida madrasada mudarrislik qiladi va shu yerda vafot etadi.

Manbalarda uning bir necha manzumalari, qasidalar borligi aytildi. Ayniqsa, uning “Hirzul amoniy va vajhut tahoniy” asari qiroat ilmida eng asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Manzumada muallif Doniyuning “Taysir” asarini nazmga solib, unda yetti mutavotir qiroatning o’ziga xos jihatlari hamda ularning imomlari haqida yozadi. Hozirgi kunga qadar ushbu asar qiroat ulamolari tomonidan mo’tabar asar sifatida qadrlanadi. Hattoki, yetti mutavotir qiroatdan ijozasi bor qorilar ham Shotibiyning ushbu asarini yodlamaguncha tom ma’noda yetti qiroat sohibi hisoblanmaydi.

Maqolada asarni yozishda qo’llanilgan uslub, uning mundarijasidagi metod, jam’iy va fardiy ramzlar haqida ham so’z yuritiladi.

Kalit so’zlar: Imom Shotibiy, Hirzul amoniy va vajhut tahoniy, Doniy, Taysir, qasida, manzuma, qiroat imomlari, fardiy ramzlar, jam’iy ramzlar.

Abstract. This article is about the life and scientific activity of Qasim bin Firrukh bin Khalaf bin Ahmad Abul Qasim abu Muhammad al-Shatibi, the great recitation imam who was born in Shatiba, Andalusia in the 6th century A.H. written There is enough information about the scientist’s life and work, mainly in Arabic and Turkish, but most of them repeat each other. Although Shatibi is known as a scholar of recitation, he was also a muhaddith, philologist, and a saint with many blessings. The great Imam, who was born blind, traveled to Valencia in search of knowledge. During the trip, he learns knowledge from many scholars and narrates hadiths. Later, he goes on a pilgrimage. He returned

from there and settled in Cairo. He raised many students there, taught at the madrasa under Qazi Fazil, and died there.

Sources say that he has several manzumas and odes. In particular, his work "Hirzul Amoni and Vazhut Tahani" is one of the most important sources in the science of recitation. In the poem, the author puts Doni's work "Taysir" into verse, and writes about the characteristics of seven mutawatir recitations and their imams. To this day, this work is appreciated by scholars of recitation as an authoritative work. Even reciters who have the permission of seven mutawatir recitations are not literally considered to have seven recitations until they memorize this work of Shatibi.

The article also talks about the style used in writing the work, the method of its content, collective and individual symbols.

Key words: Imam Shatibi, Hirzul Amoni and Vazhut Tahani, Daniy, Taysir, qasida, manzuma, recitation imams, personal symbols, collective symbols.

Аннотация. Эта статья о жизни и научной деятельности Касима бин Фирруха бин Халафа бин Ахмада Абул Касима бу Мухаммада аль-Шатиби, великого имама-декламатора, родившегося в Шатибе, Андалусия, в VI веке хиджры. О жизни и деятельности ученого имеется достаточно информации, в основном на арабском и турецком языках, но большинство из них повторяют друг друга. Хотя Шатиби известен как знаток декламации, он также был мухаддисом, филологом и святым, получившим множество благословений.

Великий имам, слепой от рождения, отправился в Валенсию в поисках знаний. Во время путешествия он получает знания от многих учёных и рассказывает хадисы. Позже он отправляется в паломничество. Он вернулся оттуда и поселился в Каире. Он вырастил там множество учеников, преподавал в медресе под руководством Кази Фазиля и умер там.

Источники сообщают, что у него есть несколько манзум и од. В частности, его труд «Хирзул Амони и Важут Тахани» является одним из важнейших источников по науке о декламации. В стихотворении автор облекает в стихи произведение Дони «Тайсир» и пишет об особенностях семи мутаватирских чтений и их имамах. По сей день это произведение оценивается учеными-декламаторами как авторитетное произведение. Даже чтецы, имеющие разрешение на семь мутаватирских чтений, не считаются в буквальном смысле обладателями семи чтений, пока они не выучат наизусть эту работу Шатиби.

Также в статье говорится о стиле написания произведения, способе его содержания, собирательной и индивидуальной символике.

Ключевые слова: Имам Шатиби, Хирзул Амони и Важут Тахани, Даний, Тайсир, касыда, манзума, декламация имамов, личные символы, коллективные символы.

KIRISH

Bugungi kunda islom olamida Qur'on ilmlari doirasida juda ko'p tadqiqotlar olib borilmoqda. Ma'lumki, qur'onshunoslik sohasi bir qancha mavzularni qamrab oladi. Ular

orasida muhim sohalardan biri hisoblangan qiroat ilmi o‘zining mustahkam ilmiy asoslarga egaligi bilan ajralib turadi. Ushbu ilmlar asrlar osha islam olimlari tomonidan tizimlashtirilib, asos va qoidalari to‘liq shakllantirib keltingan.

Dunyoda Qur’onning qiroat uslublarini maxsus o‘rganadigan alohida maktablar, markazlar faoliyat olib bormoqda. Misr, Saudiya Arabiston, Birlashgan Arab Amirliklari, Eron kabi bir qator davlatlarning ilmiy muassasalarida qiroat va tajvidning amaliy tomonlari o‘rganilishi bilan bir qatorda, uning nazariy jihatlari ham tadqiq qilinadi.

Qiroat ilmlari bo‘yicha hijriy asrning boshlaridan to hozirgi kungacha ko‘plab asarlar yozilgan, ilmiy izlanishlar olib borilgan.

ASOSIY QISM

Islam olamining ko‘zga ko‘ringan ulamolaridan biri, qiroat ilmida g’oyat katta imom, hadis ilmida hofiz, arab tili va adabiyoti bo‘yicha nihoyatda katta bilimdon, shu bilan birga zohid, obid va valiy zot bo‘lmish Qosim bin Firruh bin Xalaf bin Ahmad Abul Qosim abu Muhammad ash-Shotibiy ar-Ruayniy ad-Dorir hijriy 538-(milodiy 1143) yil Andalusianing Shotiba shahrida tavallud topgan. Uning Firruh ismi ispan tilida “temir” degan ma’noni anglatadi. U o‘z ilmiy faoliyatini Alloh Subhanahu va Ta’aloning Kitobini yod olish hamda o‘zi tug‘ilib-o’sgan yurtdagi qiroat va rivoyatlarni o‘rganish bilan boshladi. So‘ng boshqa ilmlarni o‘rganishga kirishdi. Shotibiy yoshligidan o’tkir zakovat egasi edi [Abdulhamid bin Solim, 2005:31].

Qiroatini ibn Layuh deya tanilgan Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn Abul Abbas (yoki Abul Os) an-Nafzidan dars olib mustahkamladi. U o‘z yurtidagi qiroatlarni puxta o‘rganib bo‘lganidan so‘ng Shotibaning bir shahri bo‘lmish Valensiyaga safar qildi. U yerda qiroatni va Usmon ibn Saidning (Doniy) “Taysir” kitobini Abul Hasan Ali ibn Muhammad ibn Huzaylga yoddan aytib berib, undan ijoza oldi. Bu buyuk olimdan va Abul Hasan ibn an-Ni’mma, Abu Abdulloh ibn Saadi va yana ko‘plab boshqa olimlardan hadisi sharif tingladi. Shuningdek, Abul Hasan as-Salafiydan ham hadisi sharif tingladi [Ehli sünnet büyükleri.com]. Shotibiy, bundan tashqari Abul Hasan Ali ibn Abdulloh bin Halaf al-Ansoriy al-Valensiydan Mahdaviyning “Sharhul Hidoya” nomli asarini rivoyat qildi, Abdulloh Muhammad ibn Ja’far ibn Hamidga Sibavayhning “Kitob”, Mubarridning “al-Komil”, Qutaybaning “Abul kotib” nomli kitobini yoddan topshirdi [İslam ansiklopedisi, 2010. J 38:376]. So‘ng Shotibaga asrining hofizi bo‘lgan holda qaytdi.

Shogirdi Saxoviy u haqida shunday deydi: “Shotibiy Allohnning Kitobida, uning qiroati va tafsirida olim edi. Shuningdek, Rasululloh alayhissalomning hadislariha ham ko‘zga ko‘ringan olim edi. Agar uning oldida “Buxoriy”, “Muslim” va “Muvatto”lar o‘qilsa, yozuvdagagi xatolarni o‘z xotirasi bilan to‘g’irlar va kerakli o‘rinlarga nuktalarni imlo qilib yozdirib qo‘yar edi.”

Va yana aytadi: “Bizga xabar berishlaricha, u Ibn Abdulbarr (Yusuf ibn Abdulloh ibn Muhammad ibn Abdulbarr an-Namriy al-Andalusiy al-Qurtubiy al-Molikiy)ning “Kitobut Tamhid” asarini nazmga solgan [Abdulhamid bin Solim, 2005:31].

Yoshligida u o‘z yurtida xatiblik qildi. Haj ziyoratiga borish uchun o‘z yurtini tark etdi. Misrga kelib, Qozi Fozilning huzurida qoldi. U zotdan ko‘plab ulamolar hadislar rivoyat qilganlar, Qur’oni karim tilovatini tinglaganlar. U buyuk avliyo bo‘lib, ko‘plab shogirdlar yetishtirdi. U zotdan qiroat ilmini o‘rganganlarning ham duolari qabul bo‘lar edi. Qohirani vatan tutib, shu yerda qo‘nim topdi. 590 (milodiy 1194)-yili jumadul-oxir oyining 28-kuni Qohirada vafot etdi. Uning qabri Kurafa qabristonida. Qabri mashhur bo‘lib, ko‘plab musulmonlar uni ziyorat qiladilar.

Imom Shotibiy ko‘zlari ko‘r bo‘lib tug‘ilgan. U ko‘p ilmlarda mohir va mutaxassis bo‘lib, fahm va zakovati kuchli, o‘z davrining taniqli ulamolaridan, ilohiy ilmlardan xabardor bo‘lgan, karomat sohibi, buyuk avliyolardan edi. Shuningdek u, Alloh taoloning kalomi bo‘lmish Qur’oni karimning qiroati va tafsirini juda yaxshi bilgan, Rasulullohning hadislarini chuqur bilishi bilan ajralib turadigan buyuk alloma edi. Rasululloh (s.a.v.)ning ko‘p hadis kitoblaridagi hadislarni yod olgan edi. Uning huzurida “Sahihi Buxoriy”, “Muslim” va “Muvatto” kitoblarida keltirilgan hadislar o‘qib berilsa, ular orasidagi farqlarni xotiradan to‘g‘rilab, kerak bo‘lgan joyda kerakli belgilarni yozdirib qo‘yar edi. U arab tili va adabiyot ilmlari bo‘yicha ham o‘z davrining taniqli olimlaridan edi. Shuningdek, tush ta‘biri ilmini ham yaxshi bilardi. Har bir gapida va qilgan ishida Alloh taalonning roziligini qozonishdan boshga maqsadi yo‘q edi. Undan ko‘p odamlar foyda ko‘rdilar. U o‘z majlislarida keraksiz so‘zlardan yiroq bo‘lar, ilm o‘rgatishdan tashqari, biror narsa haqida so‘ralganda faqat kerakli darajada gapirardi. Darhaqiqat, u huzuridagilarni keraksiz va bekorchi so‘zlarni so‘zlashdan qaytargani uchun, uning majlisidagilar bunga juda ehtiyot bo‘lishar edi. Qur’on o‘qish uchun o’tirganida, mukammal tahorat olar edi. Alloh taolodan qo‘rqrar, Uning amrlariga itoat qilar, har bir ishida sunnatga rioya qilishga harakat qilar edi. Qattiq og‘riq keltiradigan xastalikka chalinganda ham, ahvoldan nolimagan. Ahvolini so‘rashsa, sog‘ligim yaxshi der edi, boshqa hech narsa qo‘shmasdi.

Uzoq va yaqin har bir shahar va yurtdan Qur’oni karim qiroatini o‘rganmoqchi bo‘lganlar o‘z vatanlari va ishlarini tashlab, uning majlisiga chopar va tilovat uchun huzurlaridan chiqmas edilar.

Misrga kelganida Qozi Fozil uning qadrini bilib, odamlarga aytib berdi. Uni Qohiradagi madrasasiga olib bordi. U yerda uni mehmon qilib, izzat-ikrom qildi. Uni madrasasiga Rais-ul-mudarrisin (Universitet rektori) etib tayinladi va uni hammadan ustun qo‘ydi. Uni juda hurmat qilardi.

Imom Shotibiy nazmda bitgan “Qasidai lomiyya” va “Qasidai roiyya” nomli asarlarini shu yerda yozgan. U bu ikki asarning har birida fasohat va notiqlik ilmi durdonalarini, teran va nozik ma’nolarning eng yaxshi namunalarini, qiroat ilmining yuksak tamoyillarini asoslab berdi va mustahkamladi. Sulton Salohiddin Ayyubiy Bayt-ul-Maqdisni, ya’ni Quddus shahrini fath qilganda, 589 (milodiy 1193)-yili u yerga borib, Quddusni ziyorat qildi. Keyin qaytib kelib, Qohiradagi Foziliyya madrasasida qolib, o’limigacha Qur’oni karim qiroatidan dars berishni davom ettirdi [Ehli sünnet büyükleri.com].

Imom Shotibiy Qur'on ilmlarida imom bo'lib, u bilan doimo nasihat qilar va odamlarni hidoyatga boshlar edi. Qolaversa, u til va adabiyot fanlarida ham ulug' allomalar yetakchisi sifatida qabul qilingan. Xulosa qilib aytganda, u har bir ilm va fanda katta va chuqur bilimga ega edi.

Qiroat ilmida yuksak darajalarga erishgan Imom Shotibiy varo va zohidlikdan ajralmas, harom va shubhali narsalarga yaqinlashib qolishdan qo'rqb, yeyish va ishlatish mumkin bo'lgan ko'p narsalarni tark etar edi.

U avliyolik darajasiga ko'tarilgan, ko'plab kashf va karomatlar sohibi bo'lgan valiy zot edi. U dunyoviy havoyi nafslardan kechib, toat va ibodatga berilgan edi.

Alloh taolo uchun kamtar, teran fikrli, pok va hotirjam qalb egasi edi. Undan doim karomat, mukoshafa va avliyolik belgilari zohir bo'lar edi.

Ko'p ish va masalalarda shogirdlari, atrofidagi do'stlari tushunolmagan holatlarni o'z kashf va karomati bilan tushunib, "bu falon" deb tushuntirar edi.

U Misr masjidida ko'p marta peshin vaqtida, minorada muazzin bo'lmanida ham azonni eshitgan. Bu hol solihlar, valiyalar va tanlanganlar uchun xos holatdir.

Shofe'iy mazhabidagi bu buyuk allomaning do'stlari, yaqinlari va majlisiga yig'ilgan talabalari uning ko'plab mo'jizalari va kashfiyotlari haqida so'zlab berishgan. Shotibiyning har bir hamrohi, do'stlari uni juda hurmat qilib, unga ehtirom ko'rsatardilar. Hofiz Alloma Abu Shoma al-Maqdisiyning u haqidagi ikki misrali she'ri quyidagicha:

"Misr Shayxi Shotibiyni ko'rish sharafiga tuyassar bo'ldim.

Fozillar jamoasini ko'rdim, ular najot topdilar.

Har birlari uni hurmat qilar va uni maqtashar edi.

Ular sahobalar Payg'ambarni yaxshi ko'rgandek yaxshi ko'rardilar".

Buyuk qiroat olimi Imom Jazariy shunday izohlaydi: "Men ilm o'rgangan shayxlardan ba'zilari ustozlaridan rivoyat qilib xabar berishlaricha, Imom Shotibiy Foziliyya madrasasida bomdod namozini o'qib, so'ng Qur'oni karim qiroati uchun kelganlarga dars berar edi. Talabalar va qorilar unga Qur'on o'qib berish uchun erta kelar, keksalar va yoshlar esa uning majlisida bo'lishga shoshilishardi. Kashf va karomat sohibi bo'lgan Shotibiy kelib majlisga o'tirsa: "Kim erta kelgan bo'lsa, o'qib bersin" der, boshqa hech narsa demasdi. U har doim "birinchi kelgan, birinchi bo'lib dars topshiradi" tamoyiliga amal qilar va shuning uchun erta kelganlarni birinchi bo'lib o'qitar edi.

Bir kuni: "Bugun ikkinchi kelgan o'qisin!" deya buyurdi. Birinchi kelgan talaba va u yerdagi hamma uning gapidan hayratda qolishdi. Bu yigit va u yerdagilar o'zlaricha o'yplashardi: "Qiziq, bugun u qanday gunoh va yomonlik qildi, ustozimizga qarshi qanday aybi bor ediki, erta o'qishdan mahrum bo'ldi". Birinchi kelgan yigit o'sha kechada noplak bo'lib qolganini unutib qo'ygan edi, chunki u ustozni majlisidan joy olishga shoshayotgan edi. Shu payt uning xayoliga shu narsa keldi. Shundan so'ng madrasa yonidagi hammomga borib, tahorat oldi. Darsga ikkinchi kelgan kishi qiroatini tugatmasdan qaytib

kelib o'tirdi. Tug‘ma ko‘r bo‘lgan Imom Shotibiy qalb ko‘zi ochiqligi tufayli shogirdning bu ahvolini bilib, ikkinchisi qiroatini tugatgandan so‘ng: “Endi birinchi bo‘lib kelgan o‘qisin!” deb, bu vaziyatdan xabardor ekanligini ko‘rsatdi.

Ibn Xallikon aytadilar: “Sotibiy Qur’oni karimni yetti qiroat ila, ya’ni Payg'ambar alayhissalomning o‘qish shakllarini rivoyat qilgan yetti qiroat imomlaridan Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn Muhammad ibn Abul Os an-Nofiziya, Abul Hasan Ali bin Muhammad Huzayl al-Andalusiyga o‘qib topshirdi. Abu Abdulloh Muhammad bin Yusuf bin Sa‘d, Abu Abdulloh Muhammad ibn Abdurrahim al-Hazrajiy, Abul Hasan ibn Huzayl, Hofiz Abul Hasan ibn Ni‘ma va boshqa olimlardan ham ko‘plab hadislar tinglab, rivoyat qildi. Uning ilmidan ko‘pchilik foydalandi. Misrda undan ilm olgan ko‘pchilikni ko‘rdim”.

Imom Zahabiy “Ma’rifat-ul-qurro” kitobida shunday deydi: “Sotibiy haj qilish uchun o‘z yurtidan ketdi. Abu Tahir as-Salafiy va boshqalardan hadislarni tingladi. U Misrni vatan tutdi. Uning nomi bu yerga kelganidan keyin mashhur bo‘ldi. Odamlar undan ilm o‘rganish uchun turli uzoq joylardan kelishdi. U juda ko‘p ilmiga ega olim edi. U juda zakovatli bo‘lib, har bir fanda mutaxassis edi. Ayniqsa, qiroat ilmida rais bo‘ldi. Shuningdek, u hadis ilmi hofizi edi. Arab tili va adabiyotidan to‘liq xabardor edi. U keng bilimga ega edi.

Imom Shotibiyning huzuriga kelib, qiroatni o‘qib bergenlar ko‘p bo‘ldi. Abu Muso Iso ibn Yusuf al-Maqdisiy, Abul Qosim Abdurrohman bin Said ash-Shofeiy, Abu Abdulloh al-Faasiy, Abu Abdulloh ibn Umar bin Yusuf al-Qurtubiy, Abu Abdulloh Kurdiy, Abul Hasan Ali ibn Muhammad bin Abdussamad, as-Sahovi, Sadid Iso bin Abul Haram al-Amiri, Kamol Ali bin Shujo ad-Darir va yana ko‘plab olimlar uning talabalarining kattalaridan edi. Buyuk olim Abu Umar, Usmon bin Umar bin Hojib va yana ko‘plab olimlar uning qasidasini shaxsan o‘zidan tinglab, uni yod oldilar. Alloh taolo uning asarlari va shogirdlari ila insonlarga ko‘p barakalar berdi [Ehli sünnet büyükleri.com].

Uning asosiy nazmiy asarlari quyidagilardir:

1. Hirzul amoniy va vajhut tahoniy fi qiroat as-sab’ – Qiroat ilmiga oid qasida bo‘lib, 1173 baytdan iborat. Turli xil kutubxonalarda yuzlab nusxalari bo‘lgan bu asar Abu Amr Doniyning “At-Taysir fil qiroatis sab” asarining nazmiy shaklidir. Asar juda mashhur bo‘lgan, unga sharhlar yozilgan va qiroat o‘rgatishda asosiy manbalardan biri hisoblangan. U tenggi yo‘q noyob asar bo‘lib, o‘z davrining qiroat olimlari uni qiroatning naql qilinishiga oid asosiy manba sifatida qabul qilganlar. Qiroat ilmi bilan shug‘ullanadiganlar bu qasidani yod olish va anglashga katta ahamiyat berardilar. Bu qasida qiroat ilmiga oid nozik va sirli ishoratlar, insonni hayratga soladigan ramzlarni o‘z ichiga oladi. Bu uslubda hech qachon bunday qasida yozilmagan. Qasidaning har bir bayti lam harfi bilan qofiyangani uchun bu asarni “Qasidai Lomiyya” deb ham atashadi. Imom al-Jazariy bu asar haqida shunday deydi: “Uning qasidasini o‘qiganlar, Alloh taoloning unga qilgan ehsonining darajasini tushunadilar. Undan keyin kelgan balog‘at sohiblari uning “Qasidai Lomiyya”siga o‘xshash hech narsa yarata olmadilar va unga qarshi e’tiroz bildira olmadilar. Uning darajasini uning uslubida she‘r yozgandan boshqa hech kim

tushunmaydi. Yoki uni o‘z uslubida yozilgan misra bilan qiyoslasa, bunda katta ustunlik aniq va ravshan ko‘rinadi. Darhaqiqat, bu kitobga Alloh taolo tomonidan berilgan shonshuhrat va qabul shu ilmdagi yoki boshqa ba’zi ilmlardagi kitoblarga berilmagan [Ehli sünnet büyükleri.com].

2. Aqilatul atrob al-qasoid fi asna al-maqosid fi rasmil Mus’haf – Abu Amr Doniyning yana bir asari – “al-Mukniy”ning nazmiy shakli bo’lib, 298 bayttan iborat. Doniyning asariga olti kalimaning imlosiga doir ma’lumotlar qo’shilgan ushbu asarning turli bosmalari nashr etilgan va ularni eng chiroyli tarzda bayon qilgan qasidadir. Arab adabiyotining eng go‘zal balog’at namunalaridan biri bo‘lgan ushbu qasida “Shotibiyatus sug’ro” va “Qasidai roiyya” ismlari bilan ham mashhurdir [Islam ansiklopedisi. 2010. J 38:376]. Unda Qur’oni matnlashtirish jarayoni va Rasmul Mus’hafni o’ziga xos qiladigan hazf-isbot, maqtu’-mav sul va hamza bilan bog’liq masalalari ko’rib chiqiladi. Sahoviyning “Al-Vosila ila kashf al-a’qila”si, Ja’baryining “Jamilatu atrob al-marosid”i, Ibnul Kasihning “Talhis al-favaid va taqrib al-mutaba’id”i Shotibiyuning manzumasiga yozilgan eng ahamiyatli sharhlardandir. Muhammab ibn Sulaymon al-Mahallalotiy ham “Havashi ala Aqilatul atrob” nomli bilan Shotibiyuning “Aqilasi”ga yozilgan hoshiyalarni birlashtirgan [Eren Pilgir. 2020:43].

3. Nazimat az-zahr fi adadi ayi suvaril Qur’an – 297 baytni o’z ichiga olgan asar Abu Amr ad-Doniyning “Al-bayon fil adadil ayil Qur’an” nomli asarining nazmiy shakli bo’lib, Muso Jorulloh (Orenburg 1910) va Ali ibn Muhammad ad-Dobba (Ithaful baroro bil mutunil asharo fil qiroati var rasmi, val ayi, vat tajvid. Qohira 1354) tarafidan nashr etilgan. Ushbu asar suralardagi oyatlarning sonini bayon qiluvchi qasida bo’lib, muallif oyatlarni rivoyat qilgan kishilar bilan bog’lab, bosh va oxirlarini ochib berishga harakat qilgan. Bu manzumaga doir Raisul qurro Abdulloh Ayyubiyning “Lavomiul badr fi bustani Nazimatuz zahr”, Abu Izz Rizvon bin Muhammadning “Al qovlul vajiz fi favasilil Kitabil Aziz” nomli sharhlari bor. Bundan tashqari, Abdulloh Abdulg’ani al-Qozining asarga “Bashirul yusr sharhu Nazimatiz zahr” nomli bir sharh yozgan [Islam ansiklopedisi. 2010. J 38: 376].

4. Qasidatu doliyya – 500 baytlik bu asar ibn Abdulbar an-Namariyning “At-tamhid lima fil Muvatto minal maoni val asonid”ining nazmiy shaklidir [Islam ansiklopedisi. 2010. J 38: 376]. Shotibiyning bu qadar keng hajmli bir asarni 500 baytga sig’dira olishi uning ilmi naqadar kuchli ekanini ko’rsatadi [Eren Pilgir. 2020:43].

5. Nazm fi zoatil Qur’an – ichida “ل” harfi bo’lgan kalimalarning asoslarini birlashtirgan to’rt baytlik bir manzumadir.

6. Tatimmat al-hirz min kurrai aimmat al-kanz [Islam ansiklopedisi. 2010. J 38:377].

7. Nazm fi tartib huruf al-af’al [Abdulhamid bin Solim, 2005:34].

Muhokama

Hirzul amoniy asari haqida umumiy ma’lumot. Shotibiy ta’vil etgan lom qofiyali “Hirzul amoniy” asari Doniyning “Taysir” nomli asarining nazmiy shaklidir. Lom qofiyasi bilan ta’rif etilgani uchun “Qasidatul lomiyya” [Ibn Jazariy. 2006. J 2: 20], shuningdek, yozuvchiga nisbat berilib “Shotibiyya” deb nomlangan asar 1173 bayttan

iboratdir. Shotibiy oson yodlanishi uchun yozgan [Qiftiy. 1986. J 4: 161] “Hirzul amoniy” asarida yetti qiroat imomining usul va farshidagi farqlarni, harflarning maxraj va sifatlarini qalamga oladi. Ibn Xaldunning “Muqaddima” asarida “Hirzul Amoniy”ning qanday maqsadda yozilganligi haqida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: “Abu Amr Doniyning tadvin etgan asarlari izohlashga, tuzatish va qisqartirishga muhtoj edi. Bularning barchasini (va qiroatga doir bo'lgan ma'lumotlarni, “Hirzul amoniy va Shotibiyya” deya mashhur bo'lgan) bir qasida bilan nazmiy ifoda etdi. Bu qasidada qiroat imomlarining ismlarini abjad shaklida, to'g'ri bir tartibda berdi. Maqsadi qiroat bilan aloqador bilimlarni oson o'zlashtirish va nazmiy bo'lgani uchun bemalol yodlash imkoniyatini saqlash edi. Shunday qilib, qiroat fanining barcha asosolari, qoidalari va masalalarini bu manzumada g'oyat keng qamrovli shaklda to'pladi. Shundan so'ng xalq uni yod olishni, ta'lim yoshida bo'lgan bolalarga undan dars berishni boshladi. Mag'rib va Andalusiya shaharlaridagi amaliyat shu shaklda davom etdi [Ibn Xaldun. 2004. J 2: 174]

Shotibiy, asarini yozarkan, “at-Taysiy” nomli kitobga ergashdi. Ammo muallif “Hirzul amoniy” nomli manzumasining bo'limlari ichida o'zi ergashgan kitobga ba'zi qo'shimchalar kiritdi. Ba'zan esa o'zi ergashgan kitob muallifi bergen jihatlardan kelib chiqib o'z takliflarini bildirdi. Shotibiyning “at-Taysir” asariga kiritgan qo'shimchalari, va uning fikriga qo'shilgan joylariga, asar boblari haqida so'z yuritayotganida to'xtalib o'tadi [Eren Pilgir. 2020: 44]

Asarda qo'llanilgan uslub. Abul Hasan ad-Doraqutniy qiroat farqlari bilan bog'liq tadqiqotlarda asarni usul va farsh deb ikki qismga ajratgan bиринчи muallifdir. Doniy “at-Taysir”ida Doraqutniyning qo'llagan usuliga amal qilgan.

Shotibiy esa Abu Amr Doniyning “at-Taysir” asarida amal qilgan bu usulni she'riyatida ham xuddi shunday qo'llagan. Shunday qilib, “Hirzul amoniy”, yozuvchi tomonidan yozilgan muqaddima, takbir, harflarning maxrajlari, xotima, shu bilan birga, usul va farsh bo'limlari – jami olti bo'limdan iborat [Eren Pilgir. 2020: 45].

Asarning muqaddimasida qo'llanilgan metod. Asarning muqaddimasi 94 baytdan iborat. Imom Shotibiy asarini deyarli barcha klassik asarlarda bo'lgani kabi basmala, hamdala va salovat aytish bilan boshlagan. Kirish qismidan so'ng Qur'oni karim o'qishning ahamiyati ifoda etilgan “Qur'oni karimni o'qing. Chunki u qiyomat kunida o'zini o'qiganlarga shafoatchi bo'lib eladi” [Muslim. 2014. J 2:541] hadisi sharifini keltirgan:

وَأَغْنِيَ غَنَاءً وَاهِبًا مُتَقْضِلاً

وَإِنَّ كِتَابَ اللَّهِ أَوْثَقُ شَافِعٌ

[Imom Shotibiy. 2016: 2]

Muallif shundan so'ng Qur'on ahlining o'ziga xos jihatlari ifodalangan hadisi shariflarni keltiradi:

مُحِلَّ لَهُ فِي كُلِّ حَالٍ مُبَحِّلٌ
مَلَابِسُ أَنْوَارٍ مِنَ التَّاجِ وَالخُلُّ
أُولَئِكَ أَهْلُ اللَّهِ وَالصَّفَوةُ الْمَلَا

فَيَا أَيُّهَا الْقَارِيِّ بِهِ مُتَمَسِّكًا
هَنِئًا مَرِيًّا وَالدَّكَ عَلَيْهِما
فَمَا ظَنُّكُمْ بِالنَّجْلِ عِنْدَ جَرَائِهِ

[Imom Shotibiy. 2016: 2]

“Kim Qur’oni Karimni o‘qib, unga amal qilsa, qiyomat kuni u kishining ota-onasiga toj kiydiriladi, uning nuri yerdagi quyosh nuridan ham go‘zalroqdir”.

“Albatta, odamlar orasida Allohga yaqinroqlari bordir. Ular Qur’on ahlidir. Ular Allohga yaqinroq va Uning xos bandalaridir” [Solih Ahmad as-Shomiy. 2013. J 1: 348].

Natija

Ramzlar va ularning matnda ishlatalishi. Imom Shotibiy o‘z asarida qo‘llagan ramzlar ham uslub jihatidan “at-Taysir” kitobiga qo‘shgan qo’shimchalardandir. Chunki Doniy o‘z asarida imom yoki roviylarga dalolat qiladigan hech qanday belgilar qo’llamagan, balki qiroat imom va roviylarining ismlarini aniq yozgan.

Shotibiy ramzlarni imom yoki roviylarga dalolat qiladigan shaklda fardiy (yolg‘iz) ramzlar va birdan ortiq imom yoki roviyga dalolat qiladigan shaklda jam’iy (umumiy) ramzlar deya ikki qismda qalamga olgan.

Fardiy ramzlar. Muallif, asarning mazmunini tashkil etadigan yetti qiroat imomi va roviylari uchun abjad hisobi deb ataladigan tizimga ko‘ra har bir imom va roviy uchun bir harf tayinladi. Shotibiy quyidagi baytda abjad hisobiga ko‘ra imom va roviylar uchun harf belgilaganini ifoda etgan [Eren Pilgir. 2020: 47]:

جَعْلَتُ أَبَا جَدَّهُ عَلَى كُلِّ قَارِئٍ [Imom Shotibiy. 2016: 4]

1- jadval. Fardiy ramzlar [Imom Shotibiy. 2016: 97]

أَبْجُون	أ	Nofe'
	ب	Qolun
	ج	Varsh
دَهْزُون	د	Ibn Kasir
	هـ	Bazziy
	ز	Qunbul
خُطْيُون	حـ	Abu Amr
	طـ	Duriy
	يـ	Susiy
كَلْمُون	كـ	Ibn Omir
	لـ	Hishom
	مـ	Ibn Zakvon
نَصْعُون	نـ	Osim
	صـ	Sho’ba
	عـ	Hafs
فَضَقْن	فـ	Hamza
	ضـ	Xalaf
	قـ	Xallod
رَسْتُون	رـ	Kisoiy
	سـ	Abul Horis

Shotibiy asarida birdan ortiq imom yoki roviya dalolat qiladigan shaklda qo'llanilgan jam'iy ramzlar ushbu baytlarda qalamga olingan:

وَسِتُّهُمْ بِالْخَاءِ لَيْسَ بِأَعْفَلَا
 وَكُوفِ وَشَاءِذَالِهِمْ لَيْسَ مُغْفَلَا
 وَكُفِ وَبَصِرِ غَيْنُهُمْ لَيْسَ مُهْمَلَا
 وَقُلْ فِيهِمَا مَعْ شُعْبَةِ: صُحْبَةٌ تَلَ
 وَشَاءِمٌ سَمَاءٌ: فِي نَافِعٍ وَقَى الْعَالَ
 وَقُلْ فِيهِمَا وَالْيَحْصَبِي: نَفَرٌ حَلَ
 وَحَصْنٌ: عَنِ الْكُوفِي وَنَافِعِهِمْ عَلَ

وَمِنْهُنَّ لِلْكُوفِيِّ: ثَاءُ مُثَلَّثٌ
 عَيْثُ الْأَلَى أَبْيَثُهُمْ بَعْدَ نَافِعٍ
 وَكُوفِ مَعَ الْمَكِيِّ بِالظَّاءِ مُعْجَمًا
 وَذُو الْقَطْ شِينٌ لِلْكَسَائِي وَحَمْزَةٌ
 صَحَابٌ: هُمَا مَعْ حَفْصَهُمْ عَمٌّ: نَافِعٍ
 وَمَكٌّ، وَحَقٌّ: فِيهِ وَإِنِ الْعَلَاءُ قُلْ
 وَحَرْمَيٌّ: الْمَكِيُّ فِيهِ وَنَافِعٍ

[Imom Shotibiy. 2016: 5]

2-jadval. Jam'iy ramzlar [Imom Shotibiy. 2016: 97]

Imom Nofe'dan tashqari qolgan imomlar	خ
Nofe' va Ibn Kasir	حرمي
Nofe', Ibn Kasir va Abu Amr	سما
Nofe' va Ibn Omir	عم
Ibn Kasir va Abu Amr	حق
Ibn Kasir, Abu Amr va Ibn Omir	نفر
Kufiylar (Osim, Hamza va Kisoiy)	ث
Kufiylar va Nofe'	حسن
Kufiylar va Ibn Kasir	ظ
Kufiylar va Abu Amr	غ
Kufiylar va Ibn Omir	ذ
Osimdan boshqa Kufiylar	ش
Hafsdan boshqa Kufiylar	صحبة
Sho'badan boshqa Kufiylar	صحاب

Ramzlarning qo'llanilishida avval yoki keyin kelish va vovi fosila (ayiruv vovi). Shotibiy o'z asarida ramzlarni qo'llashda qanday yo'l tutganligi bu mavzuga ishora qiluvchi baytlarni ko'rib chiqish bilan izohlanadi:

مَتَى تَنَقْضِي آتِيكِ بِالْوَاوِ فَيُصَلَّ
 وَمِنْ بَعْدِ ذِكْرِي الْحَرْفِ أَسْمِي رِجَالَهُ

[Imom Shotibiy. 2016: 4]

Shotibiy, yuqorida keltirilgan baytda har bir imom va roviya qo'ygan ramzlaridan birini qo'llash orqali turli qiroatga ega bo'lgan kalimaning qaysi imom yoki roviy tomonidan qanday o'qilganligini qalamga olganligini ifodalaydi. Bu usulda avval turli qiroatli so'z, keyin esa ramzlar tilga olinadi. Ammo qiroat imomlaridan birining ismini

qo'llash aniq zarur bo'lsa, tartib talabiga amal qilinmaydi [Abdulfattoh al-Qozi. 2015: 20]

Avval so'z, keyin esa ramz qo'llanishiga misol:

وَيَرُونَ الْغَيْبَ حَصًّا وَخَلَّا وَرَضْوَانٍ [Imom Shotibiy. 2016: 44]

Baytdan ko'rini turibdiki, Shotibiy avval ado jihatidan farqi bor so'zni tilga olib, so'ngra qiroat imomlari va roviylariga qo'ygan ramzlari bilan bu so'zni qiroat imomlari tomonidan qanday o'qilganligini bayon qilgan. Nihoyat, muallif vov-i fosila bilan ado kayfiyati jihatidan bahsli bo'lган boshqa so'zga o'tadi [Eren Pilgir. 2020: 50].

Qiroat imomining ismi ochiq qo'llanilgan holatga misol:

وَحَمْزَةُ وَالْأَرْحَامُ بِالْخَفْضِ جَمَّلَا [Imom Shotibiy. 2016: 47]

Bayrtdan ko'rini turibdiki, qiroat imomining ramzi emas, balki ismi tilga olinsa, bu ismning farqli qiroat qilinadigan kalima kelgan so'zdan oldin kelishi sharti bartaraf qilinadi va qiroat imomining ismi avval tilga olinadi [Eren Pilgir. 2020: 51].

سَوَى أَحْرُفٍ لَا رِبَّةٌ فِي اتِّصَالِهَا [Imom Shotibiy. 2016: 4]

Shotibiy, yuqorida keltirilgan baytdagi qiroatda farqli so'zlarning har biri o'rtasida vov-i fasila qo'llaganligini aytadi. Biroq muallif, ba'zan turli qiroat bilan o'qiladigan so'zlarni aralashdirib yuborish imkon bo'lмаган joylarda vov-i fosilani tark etish mumkinligini ham ta'kidlagan [Abdulfattoh al-Qozi. 2015: 20].

Vov-i fosila ishlatilmaydigan holatga misol:

يُجْبُونَ حَقًّا كَفَ يُمْنَى عَلَّاعًا

وَرَا بِرَقَ افْتَحْ آمِنًا يَدْرُونَ مَعْ

[Imom Shotibiy. 2016: 87]

Baytdan ko'rini turibdiki, muallif qiroat ziddiyati yuzaga kelgan so'zlar bir-biriga aralashish imkoniga ega bo'lмаган o'rnlarda vov-i fosila qo'llamagan [Eren Pilgir. 2020: 51].

بِهِ مُوضِحًا جَيْدًا مُعَمَّا وَمُحْوِلًا

وَسُوفَ أَسَمِّيَ حَيْثُ يَسْمَحُ نَظْمُهُ

[Imom Shotibiy. 2016: 6]

Shotibiy yuqorida keltirilgan baytda nazmning qiroat imomlarining ismlarini imkon qadar aniq zikr qilishga harakat qilishini aytgan. Qiroat imomining ismi qiroatda farqi bo'lган so'zdan oldin yoki keyin kelishi mumkin [Abdulfattoh al-Qozi. 2015: 26].

Qiroat imomining ismi ado kayfiyati jihatidan farq qiluvchi so'zdan oldin kelishiga misol:

وَقُلْ وَلَا كِذَابًا بِتَخْفِيفِ الْكِسَائِيِّ أَقْبَلا [Imom Shotibiy. 2016: 88]

Qiroat imomining ismi ado kayfiyati jihatidan farq qiluvchi so'zdan oldin kelishiga misol:

وَحَمْزَةُ وَالْأَرْحَامُ بِالْخَفْضِ جَمَّلَا [Imom Shotibiy. 2016: 47]

Ikkala misolda ham ko'rini turibdiki, muallif ba'zan qiroat imomining ismini ado kayfiyati jihatidan farq qiluvchi so'zdan oldin yoki keyin ishlatgan:

فَلَا بُدَّ أَنْ يُسَمَّى قَيْدَرَى وَيُعَقَّلَ

وَمَنْ كَانَ ذَا بَابِ لَهُ فِيهِ مَذْهَبٌ

[Imom Shotibiy. 2016: 6]

Shotibiy yuqorida keltirilgan baytda qiroat imomlaridan biri yoki roviylaridan biri biron-bir joyida yolg'iz kelgan hollarda [Halil Rashid Ahmad. 2013: 50], albatta, o'sha

qiroat imomi yoki roviy nomidan foydalanishini ta'kidlagan [Abdulfattoh al-Qozi. 2015: 26]. Masalan:

أَوِ الْطَّاءُ أَوِ الْظَّاءُ قَبْلَ تَنْزُلٍ
وَغَلَطْ وَرْشٌ فَتْحٌ لِمِصَادِهَا

[Imom Shotibiy. 2016: 6]

Shotibiy, qiroat imomlaridan biri Nofe'ning roviysi Varsh yuqorida berilgan baytdagi shartlar hosil bo'lganda lam (ل) harfini tag'liz bilan o'qiganini bayon qilgan. Bu ado kayfiyati Varshga tegishli bo'lganligi uchun muallif ushbu qismni muhokama qilar ekan, tegishli baytlarda Varsh nomini aniq tilga olgan [Eren Pilgir. 2020: 51].

Xulosa

Abul Qosim ash-Shotibiy qiroat va tafsir ilmida olim bo'libgina qolmay, huzurida "Buxoriy", "Muslim" va "Muvatto"lar o'qilsa, yozuvdagi xatolarni o'z xotirasi bilan to'g'irlab, kerakli o'rnlarga nuktalarni imlo qilib yozdirib qo'yadigan darajada hofiz ham edi. Uning qiroat ilmiga oid "Hirzul amoni va vajhut tahoniy fi qiroat as-sab", "Aqilatul atrob al-qasoid fi asna al-maqosid fi rasmil Mus'haf", "Nazimat az-zahr fi adadi ayi suvaril Qur'an", "Qasidatu doliyya", "Nazm fi zoatil Qur'an", "Tatimmat al-hirz min kurrai aimmat al-kanz", "Nazm fi tartib huruf al-af'al" kabi bir qancha manzumalar bitgani ma'lum. Uning shoh asari bo'lmish "Hirzul amoni va vajhut tahoniy fi qiroat as-sab" manzumasi Doniyning yetti qiroatga bag'ishlab yozilgan "Taysir" asarining nazmiy bayonidir. Shotibiy "Taysir"dagi ma'lumotlarning barchasini 1173 baytda jamlab bergen. Har bir baytning oxiri lam harfi bilan qofiyalangani uchun asar "Qasidai lomiyya" deb ham ataladi. Bundan tashqari, muallifga nisbat berib, "Shotibiyya" deb ham yuritiladi. Asarga shu kungacha ko'plab sharhlar bitilgan. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida ham uning bir qancha sharhlari mavjud bo'lib, ular oradsida fors tilidagi sharhlar ham borligi e'tiborga molikdir.

"Hirzul amoni" yozuvchi tomonidan yozilgan muqaddima, takbir, harflarning maxrajlari, xotima, shu bilan birga, usul va farsh bo'limlari – jami olti bo'limdan iborat. Imom Shotibiy asarini deyarli barcha klassik asarlarda bo'lgani kabi basmala, hamdala va salovat aytish bilan boshlagan. Asarni yozish davomida o'zi asos qilib olgan "Taysir" asariga ba'zi qo'shimcha va to'ldirishlar ham kiritgan. Asarning bugungi kunga qadar e'zozlanishi, qiroat ulamolari tomonidan uni yodlashga katta ahamiyat berilishi, uning naqadar qimmatli va puxta yozilgan kitob ekanligini isbotlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdulfattoh al-Qozi. Al-Vafi fi sharhi ash-Shotibiyya. (2015). Qohira: Dorus salom.
2. Abdulhamid bin Solim bin Ruvayjah al-Uluvviy as-Soidiy. (2005). Al-Mufid fi sharhil Qosid li Alamiddin Qosim bin Ahmad al-Andalusiy al-Varoqiy. Al-Mamlakat al-Arabiyyatu as-Su'udiyya: Vizarot ta'lim ala-a'liy al-jami'atu alislamiyyatu bil Madinati al-Munavvara kulliyatu Qur'ani al-Karim va ad-dirosati alislamiyya qismi al-qiroat.
3. Abdurrahim bin Abdulloh bin Umar ash-Shanqitiy. Halat ash-Shotibiyya miat Taysir. (2010). Majallatu ma'had al-Imam ash-Shotibiy lid dirosatil Qur'aniyya.

4. Ehli sünnet büyükleri.com. ŞÂTİBÎ (Kâsim bin Fîrruh el-Endülüsî) - İslâm Alimleri Ansiklopedisi - ehlisunnetbuyukleri.com | İslâm Alimleri | Evliya Hayatları.
5. Eren Pilgir. (2020). Kîraat edebiyatında ve tâdrîsatında manzum eser geleneği: Hîrzul-emani örneği. İstanbul.
6. Halil Rashid Ahmad. Infîrodât al-qurro as-sab'. (2013) Bayrut: Doru ibn Hazm.
7. Ibn Jazariy. G'oyatun nihoya. (2006). Livan: Dorul kitab ilmiyya. J 2.
8. Ibn Xaldun. Muqaddima. (2004). Damashq: Dorul Balxiy. J 2.
9. Imom Shotibiy. Hirzul amoniy va vajhut tahoniy. (2016). Livan: Dorul bashar alislamiy.
10. İslâm ansiklopedisi. (2010). J 38. Türkiye diyanet vakfı.
11. Muhammad Fuad Abdulbaqi. Jomi'u as-sahih Muslim. Daru ihyai kutub alarabiyya.
12. Muslim. Sahîhi Muslim. (2014). Livan: Dorut tasil. J 2.
13. Qiftiy. Inbahur ruvat. (1986). Qohira: Dorul fîkr al-arabiyy. J 4.
14. Shayboniy. Musnad. Jam'ul Qur'an va fadailuhu.
15. Solih Ahmad as-Shomiy. Musnad Imom Ahmad ibn Hanbal. Damashq: Dorul qolam. (2013). J 1.